

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING AVLODLARI “KO‘HINUR” OLMOSI HAQIDA BILISHADIMI?

Sarvinoz Shokirova Isroiljon qizi

Andijon davlat pedagogika insituti pedagogika fakulteti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalisHi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Adpi o‘qituvchisi **Hamida Odilova**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola odamlar Ko‘hinur olmosi haqida nima bilishi va nima uchun odamlar “Ko‘hinur” nomini eshitganda go‘zallik saloni yoki tamaddixonalar tushunishi haqida.

***Kalit so‘zlar:** Ko‘hinur olmosi, tarix, badiiy asarlar, sayohat, go‘zallik saloni, tamaddixonalar.*

Ko‘hinur o‘zi nima? Ko‘hinur olmosi haqida ko‘plab asarlar va maqolalarda so‘z yuritilgan. Lekin shunga qaramasdan yosh avlodlar orasida u haqida ma’lumotga ega bo‘lmaganlar ham yo‘q emas. Bu nomni eshitganda, fikr-u xayoliga faqatgina go‘zallik saloni, liboslar do‘koni yoki biror-bir tamaddixona keladigan insonlar ham topiladi.

Ko‘hinur (forscha كوهنور - "tog‘ nuri") dunyodagi eng yirik olmoslardan biri hisoblanadi.

Olmos haqida Z.M. Boburning "Boburnoma", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarlari orqali bilib olishimiz mumkin. Aynan shu olmosga bag‘ishlangan asar va maqolalarni ham ko‘ramiz. Xususan, Iroj Aminiyning ikkita yirik asari, ya’ni "Boburning olmosi Ko‘hinur" hamda "Ko‘hinur olmosi" va Bunyod Abdullayevning "Ko‘hinur afsonaviy yoxud dunyoning ikki yarim kunlik sarfiga teng olmos haqida" nomli maqolasida ham Ko‘hinur haqida batafsil so‘z boradi.

Rivoyatlarga ko'ra, olmos 5 ming yil avval Hindiston janubidan topilgan bo'lib, u "Maxabharat" dostonidagi afsonaviy qahramon Karnaga tegishli bo'lgan. 1526 yilda Hindiston buyuk bobomiz Zahriddin Muhammad Bobur tomonidan zabt etiladi. Panipat jangida hind rojasi Bikeramit halok bo'ladi. Uning rafiqasi oilasiga tegishli bo'lgan boyliklarni Boburning o'g'li Xumoyunga topshiradi. O'ljalar orasida "Ko'hinur" ham bor edi. Humoyun barcha o'ljani, jumladan "Ko'hinur"ni xam otasiga topshiradi. Ana o'shandan boshlab Boburiylar sulolasining xukmdorlari "Ko'hinur"ni tojlaridan aslo tushirmagan. Odamlar olmos Buyuk Boburiylar sulolasining tojida turar ekan, bu sulola aslo zavol ko'rmasligiga ishonishgan.

"Boburnoma"da yozilishicha, olmos 1294 yili Malva rojasiga tegishli bo'lgan. Bobur mazkur olmosning qiymati "Tamomi olamning ikki yarim kunlik sarfiga barobar" ekanini aytadi. Bobur va Humoyun Ko'hinurni "Boburiylar olmosi" deb ataydilar.

Xususan, o'z davrida Nodirshoh ham Ko'hinurni "Agar bir odam beshta tosh olib birini shimolga, birini janubda, birini sharqqa, birini g'arbga va beshinchisini esa osmonga otib, toshlar yotgan manzil oralig'ini oltin-u marvaridlar bilan to'ldirsa Ko'hinurning qiymatiga teng boylik bo'lar edi", deb aytgan ekan.

1849 yilda "Ko'hinur" olmosi Britaniya qirolichi Viktoriyaning xazinasiga o'tkazilgan. Bugungi kunda esa ushbu tosh qirolicha Yelizavetaning tojini bezab turibdi.

1852 yili Amsterdamda shahzoda Albertning texnik xizmatchisi Jeymis Tennant tomonidan olmosga ishlov beriladi. Ishlov berish jarayonida 186 karat bo'lgan olmos 105 karatgacha kichrayadi. Bir paytlar dunyodagi eng katta hisoblangan Ko'hinur shundan so'ng kattalikda o'z qiymatini yo'qotadi. Qirolicha Viktoriyadan so'ng qirolicha Aleksandra olmosni yangi tojga o'rnatdi. Shundan boshlab, olmos qirolicha tojini bezab kelmoqda. 2002 yili Ona qirolicha vafotidan so'ng olmos toj bilan birga "Tover of London qasriga o'tkazildi.

Uzoq yillardan soʻng koʻplab tarixchilar, siyosatchilar tomonidan olmosning haqiqiy egasi ustida koʻplab tortishuvlar yuzaga keldi va haligacha davom etmoqda. 1976 yili Pokiston Bosh vaziri Zulfiqor Ali Bxutto Britaniya Bosh vaziri Jim Sallagandan olmosni Pokistonga qaytarishni soʻragan edi. 1997 yili esa qirolicha Elizabeta II Pokiston va Hindiston mustaqilligining 50 yilligi munosabati bilan tashrif buyuradi. Shunda bir nechta mahalliy zodagonlar Koʻhinurni Hindistonga qaytarishni talab qilib chiqishdi. 2000 yili noyabrda esa Afgʻonistonda oʻz rejimini oʻrnatishga harakat qilayotgan Tolibon guruhi ham Britaniya hukumati Koʻhinurni Afgʻonistonga qaytarishi kerak, degan qatʼiy talabni qoʻydi. Eron matbuoti esa olmosning haqiqiy egasi Eron hukumati degan daʼvo bilan chiqishlar qilib turadi. Oʻz oʻrnida Oʻzbek tarixchi va siyosatchilari tarafidan ham olmosga daʼvolik harakati yuzaga kelsa, oʻrinli boʻladi. Bunga asos qilib esa, Olaf Karoining "Tayms" gazetasidagi fikrlarini eslatamiz: " Koʻhinurning haqiqiy egalari turkiy qavmga mansub Hindiston hukmdorlari edi", - deya yozadi Olaf Karoi oʻz maqolasida. Albatta, hozirgi zamonda olmosga ochiqcha daʼvo bilan chiqish bemaʼnilik boʻlar, ammo turli sohalarda tahsil olayotgan bugungi yoshlarimiz oʻz ilmi, odobi va milliy oriyati bilan Koʻhinurga daʼvo qila oladi deb oʻylaymiz.

Oʻz oʻrnida, biz Yangi Oʻzbekiston yoshlari ham "Koʻhinur" olmosiga oʻz ilmimiz va milliy oriyatimiz tufayli daʼvo qila olamiz deb oʻylayman.

Chunki biz yoshlarning, nafaqat har bir Oʻzbekistonlikning burchi milliy boyliklarimizni asrash emasmi?

Koʻz yoshlari bilan oʻz yurtin tashlab hind sari yuzlangan bobomizning maʼnaviy va moddiy boyliklarini asrash bizning qoʻlimizda. Agarda asray olmasak qanday qilib biz: "Buyuk shoh va shoir Z. M. Boburning kindik qonib toʻkilgan yurtida tugʻilganmiz, biz ularning avlodlarimiz" - deb baralla aytolamiz?!

Ajdodlarimiz bizga meros qilib qoldirgan milliy, maʼnaviy va moddiy boyliklarni asrash burchimiz ekanligini unutmasligimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Aminiy (2019). Ko‘hinur olmosi. Toshkent. *G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.*
2. Qodirov P.(2018). Yulduzli tunlar. Toshkent. *Yoshlar nashriyoti*
3. Z.M.Bobur. (1989).Boburnoma Toshkent. *Yulduzcha nashriyoti*
4. https://enc.for.uz/wiki/Ko_hinur
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Vikipediya>
6. <http://marifat.uz/marifat/yangi/KO-HINUR-OLMOSI-HAQIDA-BILASIZMI.html>